



## PIRIMQUL QODIROV ROMANLARIDA TARIXIY DISKURS VA BADIY NUTQNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI ("YULDUZLI TUNLAR" VA "AVLODLAR DOVONI" ASARLARI MISOLIDA)

Saparov Eldor Niyatilla o'g'li,  
Toshkent Amaliy Fanlar o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18613420>

**Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" va "Avlodlar dovoni" romanlari tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy diskursning badiiy nutq orqali ifodalanishi, tarixiy shaxslar nutqining lingvopoetik xususiyatlari hamda maqol, ibora, naql va o'xshatishlarning pragmatik vazifalari yoritiladi. Asarlarda personajlar nutqi orqali davr ruhi, ijtimoiy ziddiyatlar va axloqiy qadriyatlar qanday lisoniy vositalar bilan ifodalangani aniqlanadi. Muallif nutqi va dialoglarning stilistik qatlamlari tahlil qilinib, ularning estetik ta'sir kuchi asoslab beriladi. Tezisdagi tarixiy roman tilining obrazlilik, emotsional-ekspressivlik va xalqona unsurlar bilan boyishi ilmiy jihatdan izohlanadi. Tadqiqot natijalari Pirimqul Qodirov romanlarining o'zbek badiiy til taraqqiyotidagi o'rnini aniqlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** lingvopoetika, tarixiy diskurs, badiiy nutq, maqol va iboralar, personaj nutqi, stilistika, tarixiy roman tili.

**Abstract.** This thesis presents a linguistic analysis of Pirimqul Qodirov's novels "Starry Nights" and "The Pass of Generations". The study focuses on the linguistic and poetic features of historical discourse, character speech, and artistic narration. Particular attention is paid to the use of proverbs, idioms, sayings, and metaphors as pragmatic and expressive tools in conveying the spirit of the historical period. The stylistic layers of authorial narration and dialogues are examined in terms of their aesthetic and emotional impact. The research highlights how historical reality is linguistically constructed through figurative language and folk expressions. The findings contribute to understanding the role of Qodirov's novels in the development of Uzbek literary language and historical narrative discourse.

**Keywords:** linguopoetics, historical discourse, artistic speech, proverbs and idioms, character speech, stylistics, language of historical novels.

**Аннотация.** В тезисе рассматриваются лингвопоэтические особенности романов Пиримкула Кадырова «Звёздные ночи» и «Перевал поколений». Исследование направлено на анализ исторического дискурса, художественной речи и языковых средств, используемых для создания образов исторических личностей. Особое внимание уделяется пословицам, фразеологизмам, изречениям и образным сравнениям как средствам прагматического и эстетического воздействия. Анализируются стилистические особенности авторской речи и диалогов персонажей, отражающих дух эпохи и социальные противоречия. Показано, каким образом историческая действительность передаётся через образный и эмоционально-экспрессивный язык. Полученные результаты позволяют определить место романов Пиримкула Кадырова в развитии узбекского художественного языка и исторического дискурса.

**Ключевые слова:** лингвопоэтика, исторический дискурс, художественная речь, пословицы и фразеологизмы, речь персонажей, стилстика, язык исторического романа.



O‘zbek adabiyotida tarixiy mavzudagi roman, qissa va hikoyalar muhim va salmoqli o‘rin egallaydi. Adiblarimiz tomonidan tarixiy haqiqatni keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida yaratilgan ko‘plab asarlar, jumladan, Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni” (“Humoyun va Akbar”); Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” (bir qarashda ishqiy roman taassurotini uyg‘otsa-da); Oybekning “Qutlug‘ qon”, “Navoiy”; Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”; Muhammad Alining “Sarbadorlar” singari romanlari ko‘plab kitobxonlar qalbidan mustahkam joy egallagan. Ayniqsa, mazkur asarlarda tasvirlangan tarixiy qahramonlarning hayot yo‘li, faoliyati va ichki dunyosi bugungi avlod uchun ma‘naviy yo‘lko‘rsatkich, go‘yo “yo‘lchi yulduz” vazifasini bajarishi shubhasizdir.

Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan “Yulduzli tunlar” va “Avlodlar dovoni” romanlari Pirmqul Qodirov ijodining eng yetuk va mukammal namunalaridan biri sifatida baholanadi. “Yulduzli tunlar” romani Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi va u yashagan davr tarixiy haqiqatlarini yoritib beruvchi noyob badiiy bitikdir. Asarni mutolaa qilish jarayonida o‘quvchi Boburning bolalik yillari, balog‘at davri va umrining so‘nggi lahzalarigacha bo‘lgan hayot yo‘liga, quvonch va iztiroblariga hamroh bo‘ladi. Har qanday mushkul va murakkab vaziyatlarda ham o‘z e‘tiqodi va insoniy qiyofasidan voz kechmagan shaxsning ichki kechinmalari bilan yaqindan tanishadi. Toj-u taxt, boyluk va hokimiyat ilinjida o‘z qarindoshlariga qarshi chiqib, hatto “bir-birining go‘shini yegan” temuriyodalarga nisbatan o‘quvchida kuchli nafrat hissi uyg‘onadi. Shu bilan birga, Temuriylar o‘zaro ahil bo‘lganida, davlatlari barqaror va qudratli bo‘lib, dushman qo‘lida xor bo‘lmas edi, degan xulosaga kelinadi.

Roman qahramoni hayotida shunday damlar tasvirlanadiki, u shohlikdan voz kechib, oddiy qalandar qiyofasida shoirlilik bilan umr kechirishni orzu qiladi. Asar shu darajada jozibali va ta‘sirchan yozilganki, o‘quvchi uni bir maromda, to‘xtovsiz, zerikmasdan mutolaa qiladi. Bu esa yozuvchining yuksak badiiy mahoratini namoyon etadi. Ayniqsa, asarda qo‘llangan maqol, ibora, o‘xshatish va naqlarning qahramonlar xarakteri hamda ruhiy holatini ochib berishdagi roli alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, qahramonlar nutqida bir necha bor uchraydigan “Tilidan tutilibdi” iborasi so‘zi bilan o‘z boshiga balo orttirgan, behuda ig‘vo qilgani uchun jazosini olgan shaxs ma‘nosida qo‘llanadi. Asardagi obrazlardan biri bo‘lgan Darvesh gov Bobur haqidagi yolg‘on gaplarga ishonib, ularni tarqatgani bois oxir-oqibat halok bo‘ladi. Xalqona ifoda bilan aytganda, uning “tili boshiga balo” bo‘ladi.

Shuningdek, “og‘ziga urmoq” iborasi asarda gapirtirmaslik, haqiqatni aytishga yo‘l qo‘ymaslik ma‘nosida ishlatiladi. Roman voqealari davomida ayrim amaldorlar haqiqatni anglamay yoki anglagan holda oddiy xalqning haqiqatni aytishidan cho‘chib, ularning “og‘ziga uradilar”. Tarixiy shaxs Uzun Hasan obrazi orqali ham bu holat



yaqqol ko'rsatiladi: u o'z aybining fosh bo'lishidan qo'rqib, Darvesh govning gapirishiga yo'l qo'ymaydi. Natijada ayrim xiyonatkor amaldorlar o'z jonini saqlab qolish ilinjida begunoh insonlar taqdirini fojia sari yetaklaydilar. Bu holatlar o'sha davrdagi ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlikning naqadar kuchli bo'lganini ko'rsatadi.

“Quyoshni to'sib olgan qora bulutlar” o'xshatishi orqali Bobur o'z atrofidagi ayrim amaldorlarni (Uzun Hasan, Ahmad Tanbal, Yoqubbek) ramziy tarzda qorong'u kuchlarga qiyoslaydi. Roman davomida ushbu shaxslar o'z qilmishlariga yarasha jazolanadi. Shu orqali adib yovuzlikning hech qachon jazosiz qolmasligini badiiy shaklda ifodalaydi. Asarda Bobur va uning siyosati quyoshga qiyoslangan bo'lsa, unga xiyonat qilgan amaldorlar qora bulut sifatida tasvirlanadi. Bu esa yozuvchining obrazli o'xshatishlardan mahorat bilan foydalanganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Asarda to'qima obrazlardan biri bo'lgan Tohir har bir murakkab vaziyatda Boburga ko'maklashib keladi. Uning tilidan tez-tez takrorlanadigan “O'zing uchun o'l yetim” naqli Quva ko'prigi epizodida alohida ma'no kasb etadi. Bu yerda temuriyzodalar va ayrim amaldorlar o'z jonini o'ylagan bir paytda, Tohir va uning safdoshlari xalq tinchligi va omonligi yo'lida jonlarini xavf ostiga qo'yadilar. Ushbu naql orqali adib xalq manfaatini himoya qilish oddiy, mard va fidoyi insonlar zimmasida ekanini chuqur ifodalaydi.

“Qirq yil qiron bo'lsa ham ajali yetgan o'lgay” maqoli esa me'mor Fazliddinning jiyan Tohir bilan suhbatida ishlatiladi. Ushbu maqol asardagi bir qator qahramonlarning, xususan, Tohir, Bobur, Xonzoda, Fazliddin singari obrazlarning taqdiriga mos keladi. Ular bir necha bor o'lim xavfi ostida qolishlariga qaramay, taqdir ularni asrab qoladi. Og'ir jarohat olgan Tohirning omon qolib, keyinchalik Bobur qo'shiniga qo'shilishi bu fikrni yana-da mustahkamlaydi.

Roman badiiyatini ochishda ayol obrazlari tilidan keltirilgan ibora va o'xshatishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Boburning rafiqasi Oyshabegim tomonidan aytilgan “Tog'ning boshi qorsiz bo'lmas, yigitning boshi xatarsiz bo'lmas” maqoli Boburga kuch va matonat bag'ishlaydi. Oyshabegim Bobur hayotining eng baxtli damlarida unga tayanch bo'lib turgani bilan birga, og'ir sinovlar davrida ham uning taqdirini chuqur aks ettiradi. Samarqand qamali, ocharchilik va o'lat balosi oqibatida Oyshabegim va uning qizi Faxrinisaning vafoti asardagi eng fojeali sahnalardan biridir. Keyinchalik Oyshabegimning Shayboniyxon tomonidan xo'rlanishi va Ko'chkinchixonga majburan nikohlab berilishi uning qismatini yanada ayancli qiladi.

Shayboniyxon tilidan aytilgan “Yaxshi bo'lsa oshini yeydi, yomon bo'lsa boshini” maqoli Zuhrabegim va uning farzandi Sulton Alining taqdiriga nisbatan qo'llanadi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Zuhrabegim Shayboniyxonning



yolg'on va'dalariga aldanib, oxir-oqibat fojiali hayot kechiradi. Ushbu maqol orqali adib uning ayanchli qismatini qisqa va lo'nda ifodalaydi.

“O'g'rini qaroqchi urdi” iborasi Samarqand hokimi Sulton Ali tomonidan Yahyo Mirzoning xiyonatini fosh etish jarayonida ishlatiladi. Bu ibora orqali yozuvchi Sulton Alining ham oxir-oqibat dushman qo'lida halok bo'lishini ramziy tarzda ko'rsatadi.

“Mardlar maydonda sinalgay” maqoli Shayboniyxon tomonidan Boburga yuborilgan maktubda qo'llanib, vaziyatning naqadar murakkabligini ifodalaydi. Bobur xalqni qirg'inga topshirmaslik uchun og'ir qarorlar qabul qilishga majbur bo'ladi.

“Yiqilgan kurashga to'ymas” maqoli esa Mahmudxon tomonidan Boburga nisbatan kinoya sifatida ishlatiladi. Bu holat temuriylar o'rtasidagi ichki kelishmovchiliklar saltanat tanazzuliga olib kelganini yana bir bor tasdiqlaydi.

“Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamagay” maqoli Qosimbek obrazi orqali qo'llanib, Shayboniyxon qo'shini haqidagi mish-mishlar fonida keltiriladi. Qosimbek tilidan aytilgan ko'plab hikmatli so'zlar yozuvchining ichki qarashlari bilan hamohangdir.

Boburning Hind sari yurishidan qaytarmoqchi bo'lgan Mohimbegim bilan suhbatda ishlatilgan “Taqdir qilichi bizning dilimizni ozmuncha yaraladimi?” o'xshatishi adib tomonidan yaratilgan badiiy ifodalarning yorqin namunasi.

Bobur asos solgan Boburiylar sulolasi uch asrdan ortiq vaqt davomida Hindistonda hukmronlik qilib, boy madaniy meros qoldirdi. Garchi bu davlat XIX asrda ingliz mustamlakachilari tomonidan tugatilgan bo'lsa-da, Bobur tomonidan yaratilgan asarlar hanuzgacha inson qalbiga nur va ma'naviy ozuqa baxsh etib kelmoqda. Uning hayoti yulduz misol tez so'ngan bo'lsa-da, adabiy merosi besh asr davomida yashab kelayotgan ikkinchi umri sifatida baholanadi. Bu – so'z qudratining yaqqol ifodasi.

Yozuvchi Bobur va uning davrini jonli tasvirlash jarayonida maqol, ibora, naql va o'xshatishlardan mahorat bilan foydalanib, o'zbek tilining naqadar boy va serqirra ekanini namoyon etadi. Har bir o'quvchi buni asarni mutolaa qilish jarayonida chuqur his etadi.

Mazkur mavzuning mantiqiy davomi sifatida Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” (“Humoyun va Akbar”) romani alohida e'tiborga loyiqdir. Unda Boburning o'g'li Humoyun va nabirasi Akbarning hayot yo'li, siyosiy faoliyati, zafar va mag'lubiyatlari, Hindiston, Agra va Kobul hududlaridagi siyosiy jarayonlar keng yoritiladi. Asar g'oyasini ochishda yozuvchi to'qima obrazlar bilan bir qatorda maqol, matal, ibora va baytlardan unumli foydalanadi.

Asarning bosh qahramonlari Humoyun va Akbar bo'lib, ular misolida ko'plab hukmdorlarning ichki iztiroblari, taqdir sinovlari haqqoniy tarzda tasvirlangan. Saroy



atrofidagi amaldorlarning riyokorligi, sotqinligi va xiyonati shu darajada jonli berilganki, o'quvchi ularga nisbatan keskin nafrat hissini tuyadi. Boburiylarning oddiy, tinch hayotni orzu qilishi, Kamroning Bobur singari she'riyatga oshno bo'lishi, aka-ukalar o'rtasidagi mehr-oqibat esa kitobxonda iliq taassurot uyg'otadi. Biroq ayrim amaldorlarning gijgijlashi oqibatida yana fojealar yuz beradi. Akbarning farzandlari Murod va Doniyolning vafoti tasviri Bobur va Akbar taqdirlari o'rtasidagi ruhiy mushtaraklikni yanada kuchaytiradi.

Farzand tarbiyasi masalasi asarda muhim ijtimoiy muammo sifatida ko'tariladi. Shohlik udumiga ko'ra, farzandlarning erta yoshdan otaliqqa berilishi Akbar hayotida chuqur pushaymonlik uyg'otadi. "Ekkaningni o'rasan" degan xalq hikmati orqali bu haqiqat bugungi avlod uchun ham dolzarb ekani anglashiladi.

Kechirimlilik g'oyasi Hamidabegim tilidan aytilgan "ulug'lar ko'tarimlik bo'lg'ay" iborasi orqali ifodalanadi. Salimning otasidan uzr so'rashi va Bobur baytining keltirilishi adolat va insof g'oyalarini mustahkamlaydi.

Rani Jodxa Bay tomonidan aytilgan "Farzandlik oqibati gavhar bo'lsa, uni asraydigan oltin – imon-u e'tiqoddir" o'xshatishi asarning badiiy yuksakligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Akbarning diniy bag'rikenglik haqidagi qarashlari, turli e'tiqod egalari o'rtasida tinchlikni ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatlari bugungi kun uchun ham ibratlidir. Elchi Akim bilan suhbatda aytilgan fikrlar esa inson qalbiga yaxshilik bilan yo'l topish g'oyasini ilgari suradi.

"Qonni qon bilan yuvib bo'lmagay" iborasi Ivan Grozniy faoliyatiga ishora sifatida ishlatilib, zo'ravonlikning baribir barqaror natija bermasligini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy asarlar o'z davrining haqiqatini ochib berish bilan birga, kitobxon ko'z o'ngida o'sha zamon ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, insonlar dunyoqarashi va axloqiy mezonlarini gavdalantiradi. "Yulduzli tunlar" va "Avlodlar dovoni" romanlarida tasvirlangan Bobur, Qosimbek, Mohimbegim, Xonzodabegim, Tohir, Salim, Hamidabonu, Humoyun va Akbar singari qahramonlarning hayot yo'li va xarakteri bugungi o'quvchi uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi tabiiydir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Pirimqul Qodirov. "Yulduzli tunlar". "Yangi asr avlodi" nashriyoti 2016.
2. Pirimqul Qodirov "Humoyun va Akbar". "Sharq" nashriyoti 2016.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.2006-2008.
4. "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" Sh.Rahmatullayev."O'qituvchi" nashriyoti. T.1978.
5. "O'zbek xalq maqollari" H.Suvanqulova. "Adabiyot uchqunlari" 2014.